



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-08, www.jarqorgon.uz

2021 - yil 22 - dekabr

VI-35-82-8-112-K/21

Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6257-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida

2021 yilning o‘tgan davrida tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashida ishchi guruh tuzilib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6257-son Farmonining 10-bandi ijrosi bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha bildirilgan fikr va mulohazalar hamda takliflarni inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6257-son Farmoni ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va

jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6257-son Farmoni hamda “2021-2022 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi”da belgilangan vazifalar ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tumandagi davlat organlari va tashkilotlarning faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni taminlash xamda mansabdor shaxslarining axoli oldidagi xisobdorligini yo‘lga quyish orkali tumanda tasirchan jamoatchilik nazoratini taminlash maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlari tomonidan muntazam ravishda maxalliy budjetnining qo‘shimcha manbalari xisobidan ajratilgan mablaglaridan foydalanilishi xolatini xar chorak yakuni bilan Xalq deputatlari tuman Kengashlarida muxokama qilinishi zarurligi belgilab qo‘yilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimligi va boshqa tashkilotlar Davlat dasturining ijro etilishi holati to‘g‘risida har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritilishini ta‘minlasin.

5. “Jarqo‘rg‘on” gazetasi tahririyati (A.Payanov)ga tumanda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Kenjaev) zimmalariga yuklatilsin.

Жарқўрғон туман ҳокими



O‘raqov B. A.